

TARJIMASHUNOSLIKDA EKVIVALENTLIK

*Andijon davlat chet tillari instituti fransuz tili sinxron
tarjima 1 kurs talabasi
Kamolova Barchinoy*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tarjimashunoslikda Ekvivalent tushunchasining kelib chiqishi ko'rib chiqiladi. Ularning tasnifi tavsiflanadi. Muallif tarjimashunoslikda Ekvivalentlik tushunchasini ko'rib chiqadi va ekvivalentlik va adekvatlik tushunchasini o'rtasidagi bag'rikenglikni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ekvivalentlik, adekvatlik, kongivit, semantic ekvivalentlik, tarjima tarjimashunoslik. Equivalent, adekvate, kongivite, translation, translator.

Mustaqil O'zbekistonimiz jaxonga yuztutib, dunyo mamlakatlari bilan nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy va ma'rifiy aloqalar o'rnatishi natijasida avvallari yurtimiz haqida tassavurga ega bo'lmagan xalqlarda o'zbek xalqining boy, ilmiy merosi madaniyati va ayniqsa adabiyotga qiziqishi uyg'onib, bu hol o'zbek adabiy asarlarini chet tillarga tarjimasiga ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Jahonni yangidan kashf etayotgan o'zbek xalqiga ham chet el adabiyoti asoslariga qiziqishi tobora oshib bormoqda.

Tarjima tillar doirasida amalga oshiriladigan madaniyatlararo aloqa vositasidir. Xuddi shunday vosita sifatida u azaldan ijtimoiy va xalqaro taraqqiyotga sezilarli ta'sir qilib kelgan. Shunday ekan yuqorida qayd etilgan mavzu bilan bo'g'liq masalalar atroflicha o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan mazkur mavzuga oid tarjima ilm amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima orqali xalqlar bir-birlari bilan fikrlashganlar, adiblar bir-birlari bilan muloqotda bo'lganlar. Hamma zamonlarda hoh adabiy, hoh ilmiy, hoh siyosiy kitoblar tarjimasini bo'lsin, xalq u yaratgan yoki yaratayotgan madaniyat, fan, adabiyot va siyosat bundan faqat naf ko'rgan.

Zamonaviy tarjima nazariyasida tarjima qilingan matnning asl matnga mos kelishini bildiradi.

Tarjima ekvivalentligi tushunchasi tarjima natijasining asl nusxaga iloji boricha yaqinroq bo'lgan g'o'yasini va bu natijaga erishish vositalari g'oyasini o'z ichiga oladi. Tarjimalar xalqlar o'rtasida ma'rifat tarqatish vositasi deb qarash, u orqali o'zga xalqlar bilan yaqinlashishni ko'zlash davom etib kelgan. O'z davrida tarjimonlar saroyda eng yuqori lavozim hisoblangan, chunki ikki davlatning kelajagi shu tarjimonlarning tarjimalariga bog'liq bo'lgan. Buyuk sarkarda Amir Temur Fransiya qiroli Karl IV bilan yozgan yozishmalari alohida tarixiy ahamiyatga ega. 1402 yilda Karl IV Amir

Temur bilan mustahkam siyosiy aloqalarni o'rnatishgaintilgan .Maskur yozishmalar Amir Temur qirolning sharqqa nisbatan siyosatini qo'llab quvvatlagan holda, o'z davlati bilan Fransiya o'rtasida savdo-sotiq yo'lga qo'yilishining ahamiyatga e'tibor qaratadi. Tarjimon davlatlararo yozishmani tarjima qilayotgan juda kata diqqat e'tibor bilan tarjima qilishi kerak chunki birgina kichik xat6 bilan ikki davlatni urushtirib, birqancha insonlarni qoni to'kishiga ham sababchi bo'lishi mumkin. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, u har tomonlama yetuk ,ehtiyotkor,yuqori bilimga ega,qobilyatli ,so'z boyligi ko'p,hushmuomala vatezfikrlay bilishi kerak.

Foydalanilgan adadiyotlar

1. Tarjima nazariyasi I.G'ofurov, O.Mo'minov ,N.Qambarov
2. Prakticheskiy kurs perevoda T.Kotlyarova. N .Geyko
3. Bezekvivalentnaya leksika kak ponyatiye I yavleniye A. Konstatinovna
4. Izmeneniye semantika strukturnoy analogichnosti originala I perevoda razlichnix janrov. Babushkina Irina Aleksandrovna
5. Kongitivniye osobennosti perevoda nauchno texnicheskogo teksta Irina Nikolayevna.
6. Tarjhimaning umumiy nazariyasi asoslari Fedorov